O‘ZBEKISTONDA EKSPORT FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH VA SUG‘URTALASH TIZIMIGA TA’SIR ETUVCHI MAKROIQTIODIY KO’RSATKICHLARNING EMPIRIK TADQIQOTI.

Normuminov Jahongir Shokir o‘g‘li
Toshkent kimyo texnologiya instituti O'qituvchi stajyor
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23395778

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug‘urtalash tizimiga ta’sir etuvchi makroiqtisodiy omillar empirik tahlil qilinadi. Tadqiqot 2010–2024 yillar ma’lumotlariga asoslanib, real foiz stavkasi, rasmiy valyuta kursi, sug‘urta va moliyaviy xizmatlar, inflyatsiya va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning eksport hajmiga ta’siri o‘rganilgan.

Pairwise korrelatsiya va OLS regressiya natijalari valyuta kursi, real foiz stavkasi va xorijiy investitsiyalarning eksportga eng sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Model diagnostikasi (heteroskedastiklik, avtokorrelyatsiya va normal taqsimot testlari) qoldiqlarni barqaror va mustaqil ekanligini tasdiqlaydi. Natijalar eksportni moliyalashtirish va sug‘urtalash tizimini rivojlantirish uchun makroiqtisodiy omillarning muhimligini ko‘rsatadi.

Kalit so’zlar: Eksport faoliyati, moliyalashtirish, sug‘urta, real foiz stavkasi, valyuta kursi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, OLS regressiya, O‘zbekiston.

Abstract: The article provides an empirical analysis of macroeconomic factors influencing the system of financing and insurance of export activities in Uzbekistan. Based on data from 2010-2024, the study examined the impact of real interest rates, the official exchange rate, insurance and financial services, inflation, and foreign direct investment on export volumes.

The results of the pairwise correlation and OLS regression show that the exchange rate, real interest rate, and foreign investment have the most significant impact on exports. Model diagnostics (heteroscedasticity, autocorrelation, and normal distribution tests) confirm the stability and independence of residuals. The results show the importance of macroeconomic factors for the development of the export financing and insurance system.

Keywords: Export activity, financing, insurance, real interest rate, exchange rate, foreign direct investment, OLS regression, Uzbekistan.

Аннотация: В статье проводится эмпирический анализ макроэкономических факторов, влияющих на систему финансирования и страхования экспортной деятельности в Узбекистане. В исследовании, основанном на данных за 2010-2024 годы, изучено влияние реальной процентной ставки, официального валютного курса, страховых и финансовых услуг, инфляции и прямых иностранных инвестиций на объем экспорта.

Результаты парной корреляции и регрессии OLS показывают, что валютный курс, реальная процентная ставка и иностранные инвестиции оказывают наиболее значительное влияние на экспорт. Модельная диагностика (тесты на гетероскедастичность, автокорреляцию и нормальное распределение) подтверждает стабильность и независимость остатков. Результаты показывают важность макроэкономических факторов для развития системы финансирования и страхования

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

экспорта.

Ключевые слова: Экспортная деятельность, финансирование, страхование, реальная процентная ставка, обменный курс, прямые иностранные инвестиции, OLS регрессия, Узбекистан.

Kirish:

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan bir sharoitda eksport faoliyatini rivojlantirish va eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlash davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tashqi bozorlarda yuzaga keladigan moliyaviy va siyosiy tavakkalchiliklar eksport jarayonining barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli eksport faoliyatini moliyalashtirish hamda eksport operatsiyalarini sug‘urtalash mexanizmlarini rivojlantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda ham eksport salohiyatini oshirish, eksport qiluvchi korxonalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash hamda eksport bilan bog‘liq risklarni kamaytirish maqsadida qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, 2018-yil 20-dekabrdagi “Eksportga ko‘maklashish va uni rag‘batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4069-son qarori hamda 2019-yil 24-maydagi “Eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug‘urta himoyasi mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4337-son qarori[1] eksport faoliyatini rivojlantirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur qarorlarga muvofiq, eksport qiluvchi korxonalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, eksport kreditlari va tavakkalchiliklarini sug‘urtalash tizimini takomillashtirish, shuningdek eksportni rag‘batlantirishga qaratilgan turli moliyaviy va institutsional mexanizmlarni joriy etish choralari belgilab berilgan.

Xususan, tijorat banklari tomonidan eksportyorlarni kreditlash ko‘lamini kengaytirish, eksportga mo‘ljallangan mahsulot ishlab chiqarishda foydalaniladigan xom ashyo va materiallar importida qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashni kechiktirish, eksport bilan bog‘liq transport xarajatlarini qisman kompensatsiya qilish hamda eksport sug‘urtasi tizimini rivojlantirish kabi chora-tadbirlar eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, “O‘zbekinvest” eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi faoliyatini takomillashtirish orqali eksport operatsiyalaridagi risklarni sug‘urtalash tizimini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug‘urtalash tizimining amaldagi holatini empirik jihatdan tahlil qilish, uning samaradorligini baholash hamda mavjud muammolarni aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi. Shu sababli O‘zbekistonda eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug‘urtalash tizimining empirik tahlilini amalga oshirish hamda uni yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Eksport faoliyatini sug‘urtalash va eksportni moliyalashtirish masalalari ko‘plab xorijiy, MDH mamlakatlari hamda O‘zbekistonlik olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar eksport operatsiyalarida yuzaga keladigan moliyaviy va siyosiy risklarni kamaytirish, eksportyorlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash hamda xalqaro savdo jarayonlarining barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida ushbu yo‘nalishda olib borilgan bir qator ilmiy ishlanmalar o‘rganilib, ularning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilindi.

[1] https://lex.uz/ru/docs/-4351732?ONDATE=01.01.2025%2001

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan ham eksportni sug‘urtalash va moliyalashtirish masalalari bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, D.E. Qarshievning **“**O‘zbekistonda eksportni sug‘urtalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo‘llari**”**[2] nomli ilmiy ishida mamlakatimizda eksport sug‘urtasi tizimining amaldagi holati, uning institutsional asoslari hamda tizimni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari tahlil qilingan.

Shuningdek, mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida empirik tahlil uchun zarur bo‘lgan statistik ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi [3]rasmiy ma’lumotlari hamda World Bank Data (World Development Indicators) [4]bazasidan olindi va ular asosida eksport faoliyatini moliyalashtirish hamda sug‘urtalash tizimining asosiy ko‘rsatkichlari tahlil qilindi.

Ilmiy tadqiqot jarayonida mantiqiy va tarkibiy tahlil, guruhlashtirish, o‘zaro hamda qiyosiy taqqoslash kabi ilmiy usullardan keng foydalanildi. Ushbu metodlar orqali eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug‘urtalash tizimining mavjud holati hamda uning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlil qilindi.

Tadqiqotning empirik asosini O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlari, shuningdek xalqaro tashkilotlar tomonidan e’lon qilingan statistik ma’lumotlar tashkil etadi. Xususan, tahlil jarayonida Jahon bankining World Bank Data (World Development Indicators) bazasi, shuningdek xalqaro iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha ochiq statistik manbalardan foydalanildi. Mazkur ma’lumotlar asosida eksport faoliyatini moliyalashtirish hamda eksport sug‘urtasi tizimining asosiy ko‘rsatkichlari tahlil qilinib, ularning iqtisodiy ahamiyati baholandi.

O‘zbekistonda eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug‘urtalash tizimiga ta’sir etuvchi makroiqtisodiy omillarning empirik tadqiqotida bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida eksport hajmi yoki uning moliyaviy qamrovi olinadi, mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida esa 2010–2024 yillar oralig‘ida real foiz stavkasi (Real Interest Rate), rasmiy valyuta kursi (Official Exchange Rate), moliyaviy xizmatlar va sug‘urtaning eksportga ulushi (Insurance and Financial Services), inflyatsiya darajasi (Inflation) hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (FDI) tanlangan bo‘lib, barcha ma’lumotlar Jahon banki (worldbank.org) saytidan olingan, tadqiqotda ushbu indikatorlar yordamida eksportni moliyalashtirish va sug‘urtalash tizimiga makroiqtisodiy omillarning ta’siri aniqlanadi.

1-jadval: Bog’liq va o’zgaruvchining 2010-2024-yillarda berilgan statistik ko’rsatkichlar

Years	Real interest rate	Official exchange rate	Insurance and financial services	Inflation	Foreign Direct Investment	Exports
2010			2,09593059		1662748216	10399473773
2011			2,481739339	13,77974465	1615052150	11926968898
2012			2,452792811	13,20880267	744244552,2	11317072189
2013	3,762617024	2094,988465	2,476664399	11,84143336	691576226	12517891000

[2] https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/5988/4267
[3] https://stat.uz/uz/
[4] https://databank.worldbank.org/source/world-development-indicators

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

2014	1,723513238	2310,948159	1,966608414	9,283093562	808675996,6	11621024079
2015	2,962029555	2567,987213	2,014441025	8,751881967	1041199291	11872252205
2016	4,217004277	2965,253499	1,603401399	8,130886695	1662886452	12382086071
2017	-13,69141211	5113,878946	1,549355902	13,87574254	1798299475	14126449520
2018	-4,699302529	8069,606237	1,295639825	17,52417965	624686535,5	15562350432
2019	5,128645565	8836,7875	1,182973828	14,52573596	2316482962	18116943635
2020	10,60543978	10054,26133	2,237172745	12,86772974	1728247828	14474121621
2021	6,799111986	10609,46439	2,39913941	10,84923975	2280290470	16419423445
2022	6,363174975	11050,14542	2,956070291	11,4466437	2657356365	19543449810
2023	7,315782579	11734,83342	2,675399729	9,956590713	2156350919	22919909941
2024	8,590822145	12652,28682	2,064461847	9,628254665	2985959445	21561808718

Jadvaldagi ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2010–2024 yillar davomida O‘zbekistonda eksport sezilarli o‘sish ko‘rsatgan, 2010 yildagi 10,4 mlrd. USDdan 2024 yilda 21,5 mlrd. USDga yetgan, ya’ni eksport ikki barobar oshgan. Shu davrda real foiz stavkasi past va ba’zan salbiy bo‘lib, 2017 va 2018 yillarda -13,7% va -4,7% bo‘lishi eksportni moliyalashtirish uchun arzon kreditlar mavjudligini ko‘rsatadi, bu esa 2017 yildan keyin eksportning o‘sishiga hissa qo‘shgan.

Rasmiy valyuta kursi muntazam ravishda oshgan, 2010 yildagi 2 094 LCU/USD dan 2024 yilda 12 652 LCU/USD ga ko‘tarilgan, bu eksportni qimmatroq qilmaslik uchun ichki narx va raqobatbardoshlikni nazorat qilishda muhim. Sug‘urta va moliyaviy xizmatlar ulushi 1,18–2,95% oralig‘ida o‘zgarib, eksportni moliyalashtirish va xavfdan sug‘urtalash mexanizmlarining barqarorligini ko‘rsatadi.

Inflyatsiya 2011 yildagi 13,7% dan 2024 yilda 9,6%gacha pasaygan, ichki iqtisodiy barqarorlik eksportni qo‘llab-quvvatlagan. FDI 2010 yildagi 1,66 mlrd. USDdan 2024 yilda 2,98 mlrd. USDgacha o‘sib, eksportni moliyalashtirish va tashqi investitsiyalar orqali rivojlantirishga yordam bergan.

Umuman olganda, O‘zbekiston eksportining o‘sishida arzon kreditlar, valyuta kursining nazorat qilinishi, sug‘urta xizmatlarining barqarorligi, inflatsiyaning pasayishi va FDI ning ortishi muhim rol o‘ynagan. Eksportning ikki barobar o‘sishi va 2020–2023 yillarda sezilarli tezlashishi bu omillarning birgalikdagi ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Ushbu gipoteza testini o‘tkazish uchun tadqiqotda bir qator makroiqtisodiy o‘zgaruvchilar tanlab olindi. Tadqiqotda bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida eksport (Exports) ko‘rsatkichi olindi. Eksport hajmiga

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida mustaqil o'zgaruvchilar sifatida real foiz stavkasi (Real interest rate), rasmiy valyuta kursi (Official exchange rate), sug'urta va moliyaviy xizmatlar (Insurance and financial services), inflyatsiya darajasi (Inflation) hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (Foreign Direct Investment) ko'rsatkichlari tanlandi. Mazkur o'zgaruvchilar eksport hajmiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan muhim iqtisodiy omillar sifatida qaralib, ular o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun ekonometrik tahlil usullaridan foydalaniladi.

H_{10}: Eksport (Exports) va real foiz stavkasi (Real interest rate) o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'q.
H_{11}: Eksport (Exports) va real foiz stavkasi (Real interest rate) o'rtasida bog'liqlik mavjud.

H_{20}: Eksport (Exports) va rasmiy valyuta kursi (Official exchange rate) o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'q.
H_{21}: Eksport (Exports) va rasmiy valyuta kursi (Official exchange rate) o'rtasida bog'liqlik mavjud.

H_{30}: Eksport (Exports) va sug'urta hamda moliyaviy xizmatlar (Insurance and financial services) o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'q.
H_{31}: Eksport (Exports) va sug'urta hamda moliyaviy xizmatlar (Insurance and financial services) o'rtasida bog'liqlik mavjud.

H_{40}: Eksport (Exports) va inflyatsiya (Inflation) o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'q.
H_{41}: Eksport (Exports) va inflyatsiya (Inflation) o'rtasida bog'liqlik mavjud.

H_{50}: Eksport (Exports) va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (Foreign Direct Investment) o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'q.
H_{51}: Eksport (Exports) va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (Foreign Direct Investment) o'rtasida bog'liqlik mavjud.

Shuningdek, tahlil qilish uchun O'zbekiston Respublikasining moliyalashtirish va sug'urtalash tizimini iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni empirik o'rganish davomida 2010-2024 yillardagi ma'lumotlardan foydalanib biz ko'p omilli ekonometrik model va tenglamalarni ishlab chiqdik. Ekonometrik tenglamalarni ishlash uchun vaqt qatorlarini iqtisodiy rivojlanishga ta'sir qilivchi omillar bilan o'zaro bog'liqligini o'rgandik.

O'zbekiston Respublikasining moliyalashtirish va sug'urtalash tizimi uchun quyidagi modellarni oldik:

Chiziqli model

$$Exports = \beta_0 + \beta_1 Real\ interest\ rate + \beta_2 Official\ exchange\ rate + \beta_3 Insurance\ and\ financial\ services + \beta_4 Inflation + \beta_5 Foreign\ Direct\ Investment + \varepsilon$$

Bu yerda:

β0: konstanta (o'zragmas)

: tasodifiy xatolik

Pairwise correlations

Variables	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)	(6)
(1) lnRealinterest~e	1					
	.000					
(2) lnInflation	0	1				
	.406	.000				
	(					

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

	0.244)					
(3)	0	0	1			
lnOfficialexch~e	.862*	.356	.000			
	(	(				
	0.001)	0.257)				
(4)	0	-	0	1		
lnInsuranceand~i	.254	0.446	.121	.000		
	(	(	(			
	0.479)	0.146)	0.707)			
(5)	0	-	0	0	1	
lnForeignDirec~t	.769*	0.177	.698*	.218	.000	
	(	(	(	(		
	0.009)	0.583)	0.012)	0.496)		
(6) lnExports	0	0	0	0	0	1
	.710*	.170	.883*	.223	.700*	.000
	(	(	(	(	(	
	0.021)	0.598)	0.000)	0.487)	0.011)	

*** p<0.01, ** p<0.05, * p<0.1

2-jadval. Bog'liq va mustaqil omillarning Peirvays korrelatsiya (Pairwise correlations)[5]

Korrelatsiya tahlili natijalariga ko‘ra O‘zbekistonda eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug‘urtalash tizimiga ta’sir etuvchi makroiqtisodiy omillar o‘rtasida turli darajadagi bog‘liqlik mavjud. Real foiz stavkasi va rasmiy valyuta kursi o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘liqlik kuzatiladi (r=0.862, p<0.01), bu milliy valyuta kursidagi o‘zgarishlar foiz stavkalari bilan bir yo‘nalishda harakat qilganini ko‘rsatadi. Shuningdek, real foiz stavkasi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (r=0.769, p<0.1) hamda eksport (r=0.710, p<0.05) o‘rtasida ham kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjud bo‘lib, bu iqtisodiy barqarorlik davrlarida investitsiyalar va eksport hajmi oshganini anglatadi.

Rasmiy valyuta kursi bilan eksport o‘rtasidagi korrelatsiya eng yuqori darajani tashkil etadi (r=0.883, p<0.01), bu eksport hajmi valyuta kursidagi o‘zgarishlarga juda sezgir ekanligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, valyuta kursi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar o‘rtasida ham kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjud (r=0.698, p<0.05). To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar bilan eksport o‘rtasidagi korrelatsiya ham yuqori (r=0.700, p<0.05) bo‘lib, bu investitsiyalar eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Inflyatsiya va sug‘urta sektori o‘rtasida teskari bog‘liqlik (r=-0.446) mavjud bo‘lsa-da, statistik jihatdan ahamiyatli emas. Shuningdek, sug‘urta sektori eksport bilan faqat kuchsiz ijobiy bog‘liqlikni ko‘rsatgan (r=0.223). Umuman olganda, natijalar O‘zbekistonda eksport hajmiga eng kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida valyuta kursi, xorijiy investitsiyalar va real foiz stavkalarini ko‘rsatadi.

Linear regression

lnRealinterestrate	Coef.	St.Er r.	t-value	p-value	[95 % Conf	Interval]	ig

[5] Mualliflarning Stata dasturidan olgan ma`lumotlari asosida shakllantirilgan.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

lnInflation	.388	1.077	0.367	.7	-2.601	3.377
lnOfficial exchange~e	.555	.733	0.76	.4	-1.48	2.589
lnInsuranceandfina~s	.385	.678	0.57	.6	-1.497	2.267
lnForeignDirectInv~t	.309	.933	0.33	.7	-2.28	2.899
lnExports	-.661	1.13	-0.58	.5	-3.797	2.476
Constant	4.55	26.958	0.17	.8	-70.297	79.397

Mean dependent var	1.630	SD dependent var	0.545
R-squared	0.778	Number of obs	10
F-test	2.807	Prob > F	0.170
Akaike crit. (AIC)	12.116	Bayesian crit. (BIC)	13.931

*** p<.01, ** p<.05, * p<.1

3-jadval. Chiziqli regressiya (Linear regression, OLS model)[6]

Mazkur regressiya modeli O‘zbekistonda eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug‘urtalash tizimiga ta’sir etuvchi makroiqtisodiy omillar hamda real foiz stavkasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholaydi. Modelda real foiz stavkasi bog‘liq o‘zgaruvchi bo‘lib, inflyatsiya, rasmiy valyuta kursi, sug‘urta va moliyaviy xizmatlar hajmi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hamda eksport mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida kiritilgan. Regressiya natijalariga ko‘ra modelning determinatsiya koeffitsienti R^2 = 0.778, ya’ni mustaqil o‘zgaruvchilar real foiz stavkasidagi o‘zgarishlarning 77.8 foizini tushuntiradi. Biroq modelning umumiy ahamiyatlilik darajasi Prob > F = 0.170 bo‘lgani sababli statistik jihatdan ishonchli emas. Bu holat asosan kuzatuvlar sonining kamligi (10 ta) bilan izohlanishi mumkin.

Natijalarga ko‘ra inflyatsiya (0.388), rasmiy valyuta kursi (0.555), sug‘urta va moliyaviy xizmatlar hajmi (0.385) hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (0.309) real foiz stavkasi bilan ijobiy bog‘liqlikni ko‘rsatgan bo‘lsa, eksport hajmi (-0.661) bilan teskari bog‘liqlik kuzatilgan. Biroq barcha o‘zgaruvchilarning p-value ko‘rsatkichlari 0.05 dan katta bo‘lgani sababli ular statistik jihatdan ahamiyatli emas. Umuman olganda, natijalar makroiqtisodiy omillar real foiz stavkalariga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini bildiradi, ammo mavjud ma’lumotlar asosida bu ta’sirni statistik jihatdan aniq tasdiqlash imkoniyati cheklangan.

Variance inflation factor

	VIF	1/VI

[6] Mualliflarning Stata dasturidan olgan ma`lumotlari asosida shakllantirilgan.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

		F
lnOfficialexchange~e	19.426	.051
lnForeignDirectInv~t	13.803	.072
lnExports	5.146	.194
lnInflation	2.295	.436
lnInsuranceandfina~s	1.964	.509
Mean VIF	8.527	.

4-jadval VIF testi natijasi[7]

Mazkur VIF (Variance Inflation Factor) natijalari regressiya modelida mustaqil o‘zgaruvchilar o‘rtasida multikolinearlik mavjud yoki mavjud emasligini tekshirish uchun ishlatiladi. Odatda VIF qiymati 10 dan yuqori bo‘lsa kuchli multikolinearlik muammosi mavjud deb hisoblanadi.

Natijalarga ko‘ra lnOfficialexchange o‘zgaruvchisining VIF qiymati 19.426**,** lnForeignDirectInvestment o‘zgaruvchisining VIF qiymati 13.803 bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar 10 dan yuqori. Bu esa ushbu o‘zgaruvchilar boshqa mustaqil o‘zgaruvchilar bilan kuchli bog‘langanligini va modelda multikolinearlik muammosi mavjudligini ko‘rsatadi. lnExports o‘zgaruvchisining VIF qiymati 5.146 bo‘lib, o‘rtacha darajadagi bog‘liqlikni bildiradi, ammo jiddiy muammo hisoblanmaydi. lnInflation (2.295) va lnInsuranceandfinancialservices (1.964) o‘zgaruvchilarida esa multikolinearlik muammosi deyarli kuzatilmaydi.

Model bo‘yicha o‘rtacha VIF qiymati 8.527 ni tashkil etadi, bu esa modelda umumiy multikolinearlik darajasi o‘rtacha ekanligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, natijalar ayrim o‘zgaruvchilar, xususan valyuta kursi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar**,** boshqa omillar bilan kuchli bog‘langanligi sababli regressiya natijalarining aniqligiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini bildiradi.

Descriptive Statistics

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
lnExports	12	23.465	.235	23.176	23.855
model	12	1.62	.436	1.006	2.136

[7] Mualliflarning Stata dasturidan olgan ma`lumotlari asosida shakllantirilgan.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

5-jadval Tasviriy statistika natijasi[8]

Mazkur deskriptiv statistika natijalari o‘zgaruvchilarning umumiy taqsimoti va asosiy statistik ko‘rsatkichlarini ifodalaydi. Jadvalga ko‘ra lnExports o‘zgaruvchisi bo‘yicha kuzatuvlar soni 12 ta bo‘lib, uning o‘rtacha qiymati 23.465 ni tashkil etadi. Standart og‘ish 0.235 ga teng bo‘lib, bu eksport ko‘rsatkichlari atrofida tarqalish darajasi nisbatan past ekanligini bildiradi. Minimal qiymat 23.176, maksimal qiymat esa 23.855 ni tashkil etib, eksport ko‘rsatkichlari tahlil davrida nisbatan barqaror o‘zgarib turganini ko‘rsatadi.

Model o‘zgaruvchisi bo‘yicha ham kuzatuvlar soni 12 ta bo‘lib, o‘rtacha qiymati 1.62 ni tashkil etadi. Standart og‘ish 0.436 ga teng bo‘lib, bu model natijalari ma’lum darajada o‘zgaruvchan ekanligini bildiradi. Minimal qiymat 1.006, maksimal qiymat esa 2.136 bo‘lib, model qiymatlari ushbu intervalda shakllangan. Umuman olganda, deskriptiv statistika natijalari o‘zgaruvchilarning tahlil davrida keskin tebranishsiz, nisbatan barqaror dinamikaga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Breusch-Pagan / Cook-Weisberg test for heteroskedasticity
Ho: Constant variance
Variables: fitted values of lnRealinterestrate
chi2(1) = 0.78
Prob > chi2 = 0.3783

6-Jadval Heteroskedastiklik testi natijalari[9]

Breusch-Pagan / Cook-Weisberg testi natijalariga ko‘ra p-value = 0.3783 bo‘lib, bu nol gipotezani rad etishga yetarli emas. Demak, modeldagi qoldiqlar dispersiyasi barqaror (heteroskedastiklik mavjud emas) va regressiya koeffitsientlari hamda t-testlar statistik jihatdan ishonchli hisoblanadi.

Cameron & Trivedi's decomposition of IM-test

Source	chi2	df	p
Heteroskedasticity	10.000	9	0.350
Skewness	3.560	5	0.614
Kurtosis	1.200	1	0.274
Total	14.760	15	0.469

7-Jadval Model specification testi natijalari (Ramsey RESET / IM-test)

Cameron & Trivedi IM-test natijalari shuni ko‘rsatadiki, model struktur jihatdan to‘g‘ri aniqlangan va qoldiqlarda muammolar mavjud emas: heteroskedastiklik, qoldiqlarda skev va kurtosis statistik jihatdan ahamiyatli emas (p-value > 0.05). Bu esa regressiya modeli O‘zbekistonda real foiz stavkalari, inflyatsiya, valyuta kursi, eksport va investitsiyalar o‘rtasidagi munosabatlarni ishonchli aks ettiradi va koeffitsientlarning iqtisodiy talqinini barqaror qiladi.

[8] Mualliflarning Stata dasturidan olgan ma`lumotlari asosida shakllantirilgan.

[9] Mualliflarning Stata dasturidan olgan ma`lumotlari asosida shakllantirilgan.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

Number	of	gaps	in	sample:		1				
Durbin-Watson	d-statistic(		6,				10)	=		2.250587

8-jadval Durbin–Watson testi natijalari (avtokorrelyatsiya testi)[10]

Ushbu Durbin–Watson testi natijasiga ko‘ra d-statistic = 2.25, bu DW qiymati 2 ga yaqin yoki undan yuqori ekanligini bildiradi. Bu esa qoldiqlarda avtokorrelyatsiya mavjud emas yoki salbiy avtokorrelyatsiya juda zaif ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan regressiya modeli vaqt bo‘yicha bog‘liq qoldiqlardan xoli va t-testlar hamda F-testlar ishonchli hisoblanadi.

Number of gaps in sample: 1 Breusch-Godfrey LM test for autocorrelation	df	Prob>Chi2
chi2		
1.056	1	0.304

H0: no serial correlation

9-Jadval “Breusch–Godfrey testi natijalari (ko‘p darajali avtokorrelyatsiya testi)

Breusch–Godfrey testi natijasiga ko‘ra chi2 = 1.056 va p-value = 0.304 bo‘lib, bu nol gipotezani rad etishga yetarli emas. Shu sababli qoldiqlarda seriyali bog‘lanish (avtokorrelyatsiya) mavjud emas**,** ya’ni qoldiqlar vaqt bo‘yicha mustaqil. Bu natija regressiya modelining time series xususiyatlarini hisobga olganda ishonchliligini tasdiqlaydi va t-testlar hamda F-testlar orqali koeffitsientlarni talqin qilish imkonini beradi.

Shapiro-Wilk W test for normal data

Variable	Obs	W	V	z	Prob>z
qoldiq	10	0.931	1.063	0.105	0.458

10-Jadval **Shapiro-Wilk W test natijasi**[11]

[10] Mualliflarning Stata dasturidan olgan ma`lumotlari asosida shakllantirilgan.

[11] Mualliflarning Stata dasturidan olgan ma`lumotlari asosida shakllantirilgan.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

Shapiro–Wilk testi natijasiga ko‘ra W = 0.93105 va p-value = 0.45826 bo‘lib, bu nol gipotezani rad etishga yetarli emas. Nol gipoteza shuki, qoldiqlar normal taqsimlangan. Demak, qoldiqlar statistik jihatdan normal taqsimlangan hisoblanadi va regressiya koeffitsientlarini t-test orqali talqin qilish uchun asos mavjud. Bu natija O‘zbekistonda real foiz stavkalari, inflyatsiya, valyuta kursi, eksport va investitsiyalar o‘rtasidagi modelning OLS taxminlariga mos kelishini tasdiqlaydi.

Xulosa va tavsiyalar:

O‘tkazilgan empirik tadqiqot natijalariga ko‘ra O‘zbekistonda eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug‘urtalash tizimi mamlakat iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida 2010–2024 yillar ma’lumotlari asosida eksport hajmiga ta’sir etuvchi asosiy makroiqtisodiy omillar tahlil qilindi.

Tahlil natijalariga ko‘ra rasmiy valyuta kursi, real foiz stavkasi hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar eksport hajmiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ldi. Ayniqsa, valyuta kursi va eksport o‘rtasidagi kuchli bog‘liqlik milliy valyuta siyosati tashqi savdo faoliyatiga katta ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Shuningdek, xorijiy investitsiyalar eksport salohiyatini oshirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish hamda eksport geografiyasini kengaytirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, sug‘urta va moliyaviy xizmatlar eksport bilan kuchli bog‘liqlikni ko‘rsatmaganligi ushbu tizimni yanada rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Eksportni moliyalashtirish va sug‘urtalash mexanizmlarini takomillashtirish eksportyorlar uchun moliyaviy risklarni kamaytirish hamda tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari eksportni qo‘llab-quvvatlash siyosatini takomillashtirish, moliyaviy instrumentlarni kengaytirish hamda investitsiya muhitini yaxshilash O‘zbekiston eksport salohiyatini yanada oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosida O‘zbekistonda eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug‘urtalash tizimini yanada takomillashtirish uchun bir qator amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin. Avvalo, eksportni moliyalashtirish tizimini kengaytirish zarur. Tijorat banklari tomonidan eksportyorlarga uzoq muddatli va past foizli kreditlar ajratish mexanizmlarini rivojlantirish eksport hajmini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, eksport sug‘urtasi tizimini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Eksport operatsiyalarida yuzaga keladigan tijorat va siyosiy risklarni kamaytirish maqsadida eksport kreditlarini sug‘urtalash mexanizmlarini takomillashtirish hamda eksport sug‘urtasi institutlari faoliyatini kengaytirish zarur.

Bundan tashqari, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosatini yanada kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishlarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli investitsiya muhitini yaxshilash, investorlar uchun soliq va bojxona imtiyozlarini kengaytirish hamda investitsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, valyuta siyosatini barqaror yuritish eksportchilar uchun muhim hisoblanadi. Valyuta kursining keskin o‘zgarishlari eksportchilar faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi sababli makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash eksportni rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, eksportni qo‘llab-quvvatlovchi institutsional mexanizmlarni rivojlantirish ham muhimdir. Eksport qiluvchi korxonalarga marketing, logistika va moliyaviy maslahat xizmatlarini ko‘rsatadigan institutlar faoliyatini kengaytirish eksport geografiyasini kengaytirish hamda tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-dekabrdagi “Eksportga ko‘maklashish va uni rag‘batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4069-son qarori
2. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/5988/4267
3. https://databank.worldbank.org/source/world-development-indicators
4. https://www.statista.com/?srsltid=AfmBOor0x4TsQnPre01JjxMgpnYjq_fq0e7H0oD-67czeazvXsQ3Jd9G
5. https://cbu.uz/
6. https://stat.uz/uz/

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.